

DAVLAT BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI BAHOLASH KONSEPSIYALARI

Rashidova Mahliyo Baxtiyor qizi

Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti Siyosatshunoslik yo`nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola O`zbekiston Respublikasida Davlat boshqaruvi va xalq- hokimiyatning birdan bir manbai ekanligi konsitutsiyada belgilab qo`yilgan davlat-huquqiy faoliyatining mazmuni konsitutsiyaviy tamoyillari haqida bugungi kunda sohani Davlat hokimiyatining xalq manfaatlarini ko`zlab ustuvor faoliyatini yo`lga qo`yayotgani ,shu bilan soha faoliyatini yangi bosqichlarga olib chiqishda qilinayotgan ishlar haqida so`z yuritilgan.

Kalit so`zlar: Respublika, xalq, hokimiyat, qonun, boshqaruv, konsitutsiya, huquq, faoliyat, soha, ish, davlat samaradorlik, konsepsiya.

Kirish: Davlat masalasi eng murakkab, eng qiyin muammo bo`lganligi bois insoniyatning aqlpeshalari bu to`g`rida xilma-xil va serqirra fikrlar bildirganlar. Davlatshunos olimlardan biri A.Parshin shunday deb yozgan edi: „Davlatning tabiatini va mohiyatini teran va har tomonlama anglamay turib, davlatni oqilona va malakali boshqarib bo`lmaydi`. Falsafada kategoriyalaridan biri bo`lmish mohiyat-narsa, hodisa, buyum va jarayonlarning muhim, asosiy, zaruriy, barqaror jihatlarini, ichki aloqalarini, o`zaro munosabatlarini, qonuniyatlarini ifodalovchi belgilarning yig`indisidir. Davlatning mohiyati borasida izlanganda, uning muhim belgilarini, barcha jihatlarini tavsiflovchi xususiyatlarini, faoliyati va namoyon bo`lish qonuniyatlarini ochishga intilamiz. Davlatning mohiyati uning ijtimoiy hayotda bajaradigan vazifasini (ijtimoiy munosabatlarini boshqarish, ularni tartibga solish va boshqa muhim vazifalarini) aniqlashni ham qamrab oladi. Davlat boshqaruv organlarini ijro etuvchi hokimiyat tashkil qilib u O`zbekiston Respublikasi yagona davlat hokimiyatining mustaqil tarmog`i. Ijro etuvchi hokimiyat davlat boshqaruvi organlari tizimini tashkil etadi, ularga respublika hukumati, vazirliklar, davlat qo`mitalari va idoralari, mahalliy ijro etuvchi organlar, davlat muassasalari va korxonalari kiradi. Ijro etuvchi hokimiyat davlat xizmati orqali amalga oshiriladi. Ya`ni davlat xizmati fuqarolarning davlat organlaridagi davlat boshqaruvini amalga oshirishga qaratilgan professional faoliyatdir. Bugungi kunda o`tgan yaqin tarixga nazar tashlar ekanmiz har sohada bo`lgani kabi davlat boshqaruvida ham rivojlanishlar yaqqol ko`zga tashlanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabr kuni parlamentga murojaat bilan chiqish chog`ida hukumatga davlat boshqaruvi tizimi samaradorligini oshirish vazifasini topshirdi. Ko`pgina vazirliklar idoralar faoliyatida qaror qabul qilish haddan tashqari markazlashgan. Ularning vazifalari aniq belgilanmaganligi sababli ularning faoliyatlarida bir-birlarini takrorlash holatlari mavjud. Bundan tashqari, vazir o`rinbosarlari, o`rta bo`g`in rahbarlari ma`suliyatni o`z bo`yniga olmayapti, tashabbus ko`rsatmayapti. Nima uchun bunday bo`lyapti? Ularda bilim, ko`nikma va ma`suliyat hissi yo`q yoki korrupsiyaga berilgan, degan davlat rahbari. Bunday rahbarlar aholi kutayotgan hayotiy muammolarni hal qilish o`rniga keraksiz qog`ozbozlik va natijasiz majlislar o`tkazish bilan ovora bo`lib qolmoqda. Shavkat Mirziyoyevning fikricha, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hisobidan xodimlar sonini va ish jarayonlarini optimallashtirish choralari hali ham ko`rilmayapti. Shu sababli hukumatga ikki oy muddatda boshqaruvda bir-birini takrorlaydigan idoralar va funksiyalarni, ortiqcha byurokratik to`siqlarni qisqartirish bo`yicha hujjatlar loyihalarini tayyorlash vazifasi topshirildi. Bunda davlat boshqaruvi xodimlari sonini o`rtacha 15 % gacha optimallashtirishni nazarda tutish zarur hisoblanadi. Kelgusi yil oxiriga qadar elektron davlat xizmatlarini 60 taga ko`paytirib, ularni 300 taga, masofaviy xizmatlar ulushini esa kamida 60 % ga yetkazish zarur. Prezident, shuningdek, joylarda muammolarni hal qilishda davlat organlarining ma`suliyati va javobgarligi kuchaytirilishini ta`kidladi. Kelasi yil boshidan har bir vazirlik o`z ishini tuman, shahar, qishloq va mahalla kesimida rejalashtiradi va tashkil etadi. Vazirlar va ularning o`rinbosarlari faoliyatiga tuman,

shahar, qishloq va mahallada amalda qanday o'zgarish bo'lganiga qrab baho beriladi. Bosh vazir o'rinbosarlari, vazirlar, o'zlarining quyi tizim rahbarlari va xodimlarini yangicha talablar va zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali ishlashga o'rgatish va malakasini muntazam oshirib borish uchun ma'sul bo'ladi. Deputat va senatorlarni o'zlari saylagan hududdagi muammolar, tegishli vazirlik va hokimliklar tomonidan qay darajada hal etilayotganini doimiy o'rganib, nazorat qilib borishga chaqiraman,- deb ta'kidlagan davlat rahbari. Shavkat Mirziyoyev tuman, shahar va mahalla boshqaruvida samaradorlikni oshirish uchun xodimlar soni va maoshini hududning o'ziga xosligi va ish hajmidan kelib chiqib belgilash lozimligini ta'kidladi. Masalan, Samarqand viloyatining Paxtachi tumanida 150 ming, Urgut tumanida 500 mingdan ortiq aholi yashaydi. Yoki Shayxontohur tumani aholisi qariyb 350 ming, Bektemirda esa 46 ming nafar. Lekin, ushbu tumanlarda boshqaruv xodimlari soni va ularning ish haqi bir biridan katta farq qilmaydi. Shu sohada rivojlanishlarga katta hissa qo'shgan ustuvor vazifalardan yana biri Davlat boshqaruvida –Elektron hukumat tizimini joriy etishi bo'ldi desak, hech adashmagan bo'lamiz. Bu davlat boshqaruv organlari faoliyatini yangicha tashkil etish shakli, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llash, tashkilot va fuqarolar uchun hukumat xizmatlaridan hamda davlat organlari faoliyati natijalari haqidagi ma'lumotlarni qulay tarzda va yuqori darajada tezkor olishni ta'minlashdir.

Muhokama va Tahlil:

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati- O'zbekiston Liberak demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyevning saylovoldi dasturi saylovchilarda katta qiziqish uyg'otganligi sir emas. Binobarin, unda ilgari surilgan maqsad va vazifalar avvalambor, odamlarimiz hayotida uchrayotgan muammo va dolzarb masalalarni hal qilishga, ularning turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan bilan nihoyatda ahamiyatlidir. Xususan, dasturda rivojlangan huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish, fuqarolarning orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarish, tashabbuslarini amalga oshirish, ularning mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ishtirokini kengaytirish siyosiy tizimni rivojlantirish sohasidagi ustuvor vazifalar sifatida belgilab olingan.

Nomzodimiz dasturida davlat va jamiyat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, „Kuchli davlatdan-kuchli fuqarolik jamiyat sari“ konsepsiyasini hayotga tadbiiq etishni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bunda, davlat hokimiyati tizimida demokratik tarzda shakllantirilgan, xalq hokimiyatining timsoli bo'lgan Parlament rolini kuchaytirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid eng muhim vazifalarni hal etish bo'yicha vakolatlarini yanada kengaytirish ustuvor vazifalar sirasiga kiritilgan. Shuningdek, har qanday demokratik jamiyatning ajralmas qismi bo'lmish ko'ppartiyaviylik tizimini mustahkamlash, partiyalararo sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, Xalq deputatlari mahalliy kengashlari faoliyatida siyosiy partiyalar guruhlarining rolini kuchaytirish, ijro hokimiyati organlari faoliyatini nazorat qilish borasidagi vakolatlarini kengaytirishga alohida urg'u berilgan. Nomzodimiz dasturida, ayniqsa, vakolatlarini markazdan joylarga berish g'oyasi ilgari surilayotgani e'tiborga molikdir. Hududlarni har tomonlama rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy daturlarni amalga oshirish, qonunlar ijrosini ta'minlash, joylardagi davlat boshqaruvi organlari faoliyatini muvofiqashtirish borasidagi barcha bo'g'inlardagi hokimiyatlarning vazifa va vakolatlar tizimini takomillashtirish nomzodimiz e'tibori markazida bo'ladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, oldimizda taraqqiyotimizning bugungi bosqichida mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarda kechayotgan islohotlarning hayotiyiligini ta'minlash, jumladan, 2030-yilga qadar respublika yalpi ichki mahsulotini ikki baravarga ko'paytirish, hududlarni mamlakat rivojlanishining asosiy lokomotivga aylantirish kabi o'tamuhim vazifalar turibdi. Bu bevosita joylardagi davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligi va salohiyatiga, rahbar xodimlarning uddaburonligi, fidoyiligiga bog'liq. Shundagina qabul qilinayotgan qonunlar, farmon va qarorlar hamda davlat dasturlarining so'zsiz ijro etilishiga, ularning havoda muallaq turib qolmasdan, odamlar hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishiga erishiladi. Shu ma'noda, nomzod yangicha va mustaqil fikrlaydigan, ma'suliyatli, tashabbuskor, ilg'or boshqaruv usullarini puxta o'zlashtirilgan, halol, o'z Vatani va xalqiga sodiq kadrlarni tayyorlash bo'yicha samarali

tizim yaratish ustida jiddiy ish olib borilishini qayd etdi. Kadrlar tayyorlash tizimini va xo'jalik boshqaruvi organlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, davlat boshqaruvi va uning apparati faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida „Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida``gi (yangi tahrirda) va „Davlat xizmati to'g'risida``gi qonunlarni qabul qilish nazarda tutilgan. Mahallada tuzilmasining jamiyatdagi o'ri va ahamiyatini yanada oshirish, ommaviy axborot vositalarining iqtisodiy asoslari va moddiy bazasini yanada mustahkamlash, fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash kabi vazifalar ham nomzodimiz diqqat e'tiboridadir.

Shu o'rinda yana bir gap. Nomzodimiz dasturida ilgari surilayotgan maqsad va vazifalarning zamirida odamlarni hayotdan rozi qilish g'oyasi mujassam. Ularni hayotga to'liq tadbiiq etish etishdan el-yurtimizga naf bo'ladi. Ayniqsa, fuqarolarning murojatlarini ko'rib chiqishda davlat xizmatchilari tomonidansansalorlik va ma'suliyatsizlikn holatlariga butunlay barham berish ko'zda tutilayotgani diqqatga sazovordir.

Shuning uchun rahbarlar muntazam ravishda xalq orasida bo'lib, shaxsiy qabullar tashkil etishlari, joylardagi muammolarni hal qilishlari zarur. Bundan keyin joylardagi rahbarlar faoliyatiga birinchi navbatda ular boshqarayotgan hududdagi aholidan tushayotgan murojaatlar soni, ularning xalq ichida yurishi, mavjud muammolarning amaliy yechimiga qarab baho beriladi. Qisqa qilib aytganda, rahbarlarga xalqning o'zi baho beradi. Bu siyosiy islohotlar o'z navbatida mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, qonunlar, qarorlar va manzili dasturlarning so'zsiz amalga oshirilishiga, aholini o'ylantirayotgan ko'plab muammolarni hal qilishda joylardagi hokimiyat va boshqaruv organlari ma'suliyatini kuchaytirishga, bir so'z bilan aytganda, xalqimiz farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Biz, ana shunday ezgu vazifalarni o'ziga dasturiy maqsad qilib olgan O'zLiDepdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Miromonovich Mirziyoyevni qo'llab-quvvatlaymiz!

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29- dekabr kuni parlamentga murojati.
- 2.,„Public Managment: Old and New``.Yo`nalish.
- 3.Davlat boshqaruvining tamoyillari: kirish.Kuala-Lumpur:Karisma nashrlari.ISBN

Internet saytlari

- 4.www.lex.uz
- 5.www.zakon.uz
- 6.www.arxiv.uz
- 7.parliament.gov.uz